

## **BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI SAMARALI O'QITISH METODIKALARI**

*Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz tili I fakulteti Xorijiy til va  
 adabiyot yo'nalishi talabasi  
 Urolova Maftuna Otobek qizi  
 Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini oson va qiziqarli o`qitish metodlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining qiziqishlari inobatga olgan holda dars o`tish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

**ABSTRACT:** In this article, easy and interesting methods of teaching English to elementary school students are described in detail. Also, you can get acquainted with the methods of conducting classes, taking into account the interests of elementary school students.

**АННОТАЦИЯ:** В этой статье подробно описаны легкие и интересные методы обучения английскому языку учащихся младших классов. Также вы можете ознакомиться с методами проведения занятий с учетом интересов учащихся младших классов.

**KALIT SO‘ZLAR:** Tabiiy moyillik , raqobatdosh grammatika , aralash texnika , so‘z yodlash , Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) ,ingliz alifbosi, Pantomima" (pantomime), notanish so‘zlar , amaliyotchi psixolog , innovatsion metodlar, multimediali ilovalar .

**KEYWORDS:** Natural inclination, competitive grammar, mixed technique, word memorization, Merry Riddles, English alphabet, Pantomime (pantomime), unfamiliar words, practicing psychologist, innovative methods, multimedia application

**КЛЮЧИЕ СЛОВО:** Природная склонность, соревновательная грамматика, смешанная техника, запоминание слов, Веселые загадки, Английский алфавит, Пантомима (пантомима), незнакомые слова, практикующий психолог, инновационные методы, мультимедийные приложения

### **INTRODUCTION:**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas".

**MAIN BODY:**

Boshlang'ich ta'limdi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qaroridir . Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini , asosan , ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi . Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin :

1. Ko'rish orqali eslab qolish .

Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan , darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish . Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard) , ruchka ( pen), oyna ( window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi .

2. Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash.

Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin . Raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi . Bunda bolalar o'qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi . Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til

o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: "Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

### 3.Aralash texnika

Bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin . Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

### 4.Multfilmlar orqali o'rgatish.

Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

### 5.Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish.

Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'limgan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi.

"Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

"Pantomima" (pantomime) . Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi .

6.Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar , oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish).

Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagok bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

### **CONCLUSION:**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodga chet tillarini (ingliz tilini) maktablarning boshlang'ich sinflaridan boshlab o'rgatishning ko'plab foydali tomonlari mavjud. Va ayni shu usul bilan ularning bilimini va ko'nikmalarini rivojlantirishimiz mumkin. Ular boshlang'icsinflarda olgan bilimlari asosida yuqori sinfga o'tishgach bemalolo qiyalmasdan ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganishlari hamda bu tilde og'zaki so'zlashish imkoniga ham ega bo'ladilar. Shuning uchun ham ularga yoshlik chog'laridanoq tillarni puxta o'rganish kerakligini o'rganish onglariga

singdirib borish darkor. O'quvchilarga uy sharoitida ham alohida vaziyatlarni yaratib, dars qiladigan xonasini ingliz tiliga moslab jihozlash kerak.

Misol uchun ingliz tilini eslatib turadigan ingliz alifbosini olib berish, Buyuk Britaniya yoki dunyo xaritasini ilib qo'yish, turli xil multimediali ilovalardan foydalanishi uchun televizor olib berish va shu kabi sharoitlarni qilib berish zarur. Har bir qilingan harakat o'z samarasini berishi tayin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning keljakda oladigan bilimlari uchun poydevori bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'quvchilarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor.

#### **REFERENCES:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamонавија yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020.
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Toliboboева, Ш. С. Ж. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH.ScienceandEducation,1(SpecialIssue 2).
5. Толибобоева,Ш. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamонавија ta'lim texnologiyalari. YoungScientist, 19(309), 581-582.
6. Jildasheva, N. N. (2020). Хорижии тилларни укитишида ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг урни.Молодои ученыи, (12), 332-333.
7. Ashirbaeva, A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE.ScienceandEducation,1(SpecialIssue 2).
8. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".